



TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA QURILISH ISHLARI

2024- yil
YANVAR

2024- yilning yanvar oylarida, Toshkent shahrida jami 2 222,8 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2023-yilning yanvar oylariga nisbatan 122,0 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Yirik korxona va tashkilotlar

13,4

16,8

69,8

Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2024- yil 1-fevral holatiga qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, soni *birlikda*



Yillar kesimida soni

2024- y.	7 408
2023- y.	9 166
2022- y.	8 886

3 646

Bino va inshootlar
qurish

719

Fuqarolik obyektlarini
qurish

3 043

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Hududlar kesimida

Mirzo-Ulug'bek	971
Chilonzor	874
Yunusobod	873
Yashnabod	822
Yakkasaroy	746
Mirobod	663
Olmazor	551
Shayxontohur	534
Sirg'ali	478
Uchtepa	433
Yangihayot	279
Bektemir	184

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 80,0 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 49,2 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 80,0 foiz bo'lgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 96,6 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 41,1 foiz ulushni va 78,7 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.02.2023- y.	01.02.2024- y.	
Toshkent shahar	9 166	7 408	80,8

tumanlar:

Bektemir	214	184	86,0
Mirzo Ulug'bek	1182	971	82,1
Mirobod	818	663	81,1
Olmazor	737	551	74,8
Sergeli	515	478	92,8
Uchtepa	623	433	69,5
Chilonzor	1138	874	76,8
Shayxontohur	705	534	75,7
Yunusobod	1127	873	77,5
Yakkasaroy	948	746	78,7
Yangihayot	260	279	107,3
Yashnobod	899	822	91,4



**2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra,
Toshkent shahrida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, % da**




Mirzo Ulug‘bek (13,1)



Shayxontohur (11,8)



Yakkasaroy (11,8)



Qurilish ishlari 2024- yil yanvar oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Toshkent shahar	2 222,8	374,0	1 550,5	298,3
tumanlar:				
Bektemir	48,9	2,0	42,6	4,3
Mirzo Ulug‘bek	279,2	11,9	236,1	31,2
Mirobod	301,8	136,8	139,4	25,6
Olmazor	175,8	40,3	98	37,5
Sergeli	105,7	15,8	64,3	25,6
Uchtepa	87,2	6,5	67,4	13,3
Chilonzor	151,1	3,5	130,3	17,3
Shayxontohur	137,3	31,8	78,9	26,6
Yunusobod	378,2	53,9	274,7	49,6
Yakkasaroy	227,1	17,2	183,8	26,1
Yangihayot	77,0	31,3	29,3	16,4
Yashnobod	253,5	22,8	205,7	25,0


2024- yilning yanvar oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 374,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Yirik qurilish ishlari 2023-yilning mos davriga nisbatan 180,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,8 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2024- yil yanvar oylari uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mirobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 45,3 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 610,5 %) Yangihayot tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 40,6 % yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 449,6 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,8 %i to‘g‘ri kelib, 2023-yil yanvar oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 4,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 116,0 % ni tashkil etgan holda 1 550,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




69,8

2024- yil
yanvar

74,1

2023- yil
yanvar



MA‘LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Yunusobod tumanida (274,7 mlrd. so‘m yoki ulushi 17,7 %), Mirzo Ulug‘bek tumanida 236,1 mlrd. so‘m yoki ulushi 15,2 %) va Yashnobod tumanida (205,7 mlrd. so‘m yoki ulushi 13,3 %) ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 13,4 % ni tashkil etdi yoki 298,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 1,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 2 221,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning shahardagi ulushi mos ravishda 0,1 % va 99,9 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2024- yil yanvar oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **67,4** % i yoki **1 497,1** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

14,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **172,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **14,2** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **828,0** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **68,2** % ni tashkil etdi.

68,2 %

17,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **213,3** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **17,6** % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O’sish sur’ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Toshkent shahar	2 222,8	122,0	100,0
tumanlar:			
Bektemir	48,9	111,5	2,2
Mirzo Ulug‘bek	279,2	115,3	12,5
Mirobod	301,8	154,0	13,6
Olmazor	175,8	135,5	7,9
Sergeli	105,7	124,3	4,8
Uchtepa	87,2	111,6	3,9
Chilonzor	151,1	111,9	6,8
Shayxontohur	137,3	120,8	6,2
Yunusobod	378,2	132,4	17
Yakkasaroy	227,1	87,6	10,2
Yangihayot	77,0	147,3	3,5
Yashnobod	253,5	125,7	11,4



Ma’lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko’rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.


Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 24,0 % ni tashkil etib, 2023- yil yanvar ko'rsatkichga nisbatan 9,8 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 9,6 % punktga ko'payib, 62,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamayib, 13,9 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 45,4 % ni tashkil etdi va 2023- yil yanvarga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.
- Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 54,6 % (1,6 % punktga ko'payish)ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari


2023- yil
YANVAR



Kichik korxona
va mikrofirmalar

2024- yil
YANVAR

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,6 % punktga kamaydi va 28,8 % ni tashkil etdi. Qolgan 70,2 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,6 % punktga ko'payaydi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar

	Qurilish ishlari, mldr. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Toshkent shahar	2 222,8	1 360,0	260,6	602,2
tumanlar:				
Bektemir	48,9	30,5	7,2	11,2
Mirzo Ulug'bek	279,2	163,2	32,7	83,3
Mirobod	301,8	209,6	27,7	64,5
Olmazor	175,8	114,3	18,2	43,3
Sergeli	105,7	66,2	11,3	28,2
Uchtepa	87,2	60,2	10,1	16,9
Chilonzor	151,1	90,1	23,3	37,7
Shayxontohur	137,3	94,7	17,6	25,0
Yunusobod	378,2	236,6	41,6	100,0
Yakkasaroy	227,1	151,4	33,6	42,1
Yangihayot	77,0	50,0	12,0	15,0
Yashnobod	253,5	93,2	25,3	135,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar



ulushi % da



2023- yilning yanvar oylarida hududlar kesimidagi eng yuqori qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Yunusobod tumani 378,2 mlrd.so'm), Mirobod tumani (301,8 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek tumani (279,2 mlrd.so'm), Yashnobod tumani (253,5 mlrd.so'm) ga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (71) 203-88-18 (19)